

YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar-dekabrida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 74 527,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 10,5 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga YaHM 29 331,2 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 8,1 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 14,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

| | Mlrd. so'm | | 2018 yil yanvar-dekabriga nisbatan % da |
|---|------------------------|------------------------|---|
| | 2018 yil yanvar-dekabr | 2019 yil yanvar-dekabr | |
| I. YaHM, jami | 54 694,3 | 74 527,6 | 110,5 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 49 319,4 | 65 069,0 | 110,5 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 5 374,9 | 9 458,6 | 110,5 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 49 319,4 | 65 069,0 | 110,5 |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 21 278,3 | 30 419,0 | 115,0 |
| sanoat | 16 559,6 | 23 766,7 | 111,1 |
| qurilish | 4 718,7 | 6 652,3 | 128,5 |
| Xizmatlar | 28 041,2 | 34 650,1 | 107,1 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 8 610,3 | 10756,9 | 107,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 7 832,3 | 8 910,8 | 106,6 |
| xizmat tarmoqlari | 11 598,6 | 14982,3 | 107,0 |

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat tarmog'ining o'sish sur'ati – 111,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 36,5 %), qurilish – 128,5 % (10,2 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 107,6 % (16,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 106,6 % (13,7 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 107,0 % (23,1 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-dekabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 87,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 12,7 % ni tashkil etdi.


YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibida sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) tarmoq ulushi 46,7 % (2018 yil yanvar-dekabrda 43,2 %) ni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5% ga o‘shish kuzatildi. YaHM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi esa 53,3 % (56,8 %) ni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga kamaygan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 16,5 % ni (2018 yil yanvar-dekabrda 17,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 13,7 % ni (15,9 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,1 % ni (23,4 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil yanvar-dekabr



2019 yil yanvar-dekabr



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi
Nashr uchun mas'ul: A.Ibragimov
Tel: (0371) 230-88-08